

**“O‘ztransgaz” AJning tovar (ish, xizmat)larni xarid qilish bo‘yicha komissiyasi
TARKIBI**

1.	“O‘ztransgaz” AJ Boshqaruv raisining v.b. - xarid komissiyasi raisi	Isakov A.Sh.
2.	“O‘ztransgaz” AJ Boshqaruv raisining investitsiya va kooperatsion aloqalar bo‘yicha o‘rinbosari v.b. - xarid komissiyasi raisi o‘rinbosari	Safarov Sh.I.
3.	Loyihalashtirish va kapital qurilish departamenti boshlig‘i - komissiya a‘zosi	Tulyaxodjayev M.M.
4.	Xaridlar va kooperatsion aloqalar departamenti boshlig‘i - komissiya a‘zosi	Umarov B.Sh.
5.	Yuridik bo‘lim boshlig‘i - komissiya a‘zosi	Ulugxujaev Sh.P.
6.	Personalni boshqarish departamenti boshlig‘i - komissiya a‘zosi	Boboyev Sh.S.
7.	Iqtisodiy tahlil departamenti boshlig‘i - komissiya a‘zosi	Ishmuxammedov Sh.X.
*8.	Departament, bo‘lim boshlig‘i - buyurtmachi - komissiya a‘zosi	
9.	Tijorat va logistika departamenti boshlig‘i - komissiya a‘zosi	Yusupov Sh.F.
10	Komplaens-nazorat bo‘limi boshlig‘i (ovoz berish huquqisiz)	Ismatov O‘.Yu.
** 11.	Moddiy-texnik ta‘minot, kooperatsion aloqa (marketing) va tender savdolarini tashkil qilish bo‘limi boshlig‘i - komissiya kotibi (ovoz berish huquqisiz)	Turaxanov O.X.

Eslatma:

1. Komissiya a‘zosi boshqa ishga o‘tkazilganda yoki turli sabablarga ko‘ra (mehnat ta‘tilida yoki kasallik varaqasida bo‘lgan davrida va h.z.) ish vaqtida bo‘lmagan taqdirda uning o‘rniga ushbu lavozimga yangi tayinlangan yoki tegishli vazifalarni bajarish zimmasiga yuklatilgan shaxs kiritiladi.

2. Komissiya raisi yo‘qligida uning vazifalarini komissiya raisi o‘rinbosari bajaradi.

3. Xarid komissiyasi eng yaxshi takliflarni tanlashni va tenderni elektron shaklda o‘tkazish vaqtida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda masofadan turib ovoz berish huquqiga ega.

4. Xarid komissiyasi a‘zolari majlisning davlat xaridlarining elektron tizimida avtomatik ravishda shakllantiriladigan elektron bayonnomasini elektron raqamli imzodan foydalangan holda tasdiqlaydi. Elektron bayonnomada davlat xaridlarining elektron tizimida avtomatik ravishda e‘lon qilinadi.

5. Xarid komissiyasi davlat xaridlarining predmetidan kelib chiqqan holda, o‘z faoliyatini amalga oshirish uchun ekspertlarni, shuningdek boshqa manfaatdor vazirliklar, idoralar va davlat buyurtmachisining yuqori turuvchi tashkiloti mutaxassislarini jalb etish mumkin.

* “O‘ztransgaz” AJning departamentlari va bo‘limlari o‘z faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha xarid komissiyasi yig‘ilishlariga bevosita jalb qilinadi.

** Xarid komissiyasining tezkor faoliyatini tashkil etish bo‘yicha mas‘ul xodim.



**“O‘ZTRANSGAZ” AKSIYADORLIK JAMIYATI
BUYRUG‘I**

2026 yil 7 aprel
45-son

**“O‘ztransgaz” AJ tizimida shaffoflikni ta‘minlash uchun
xarid jarayonlarini yanada takomillashtirish
chora-tadbirlari to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-684-son va 2024-yil 27-noyabrdagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi O‘RQ-1005-son Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-iyuldagi “Davlat xaridlari shaffofligini ta‘minlash va samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5171-sonli va 2022-yil 25-iyuldagi “Investitsiyaviy va infratuzilmaviy loyihalarning loyihaoldi, davlat xaridiga doir tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari va texnik topshiriqlar hamda shartnomalarni ekspertizadan o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-332-sonli qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta‘minlash bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-259-son farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 276-sonli qarori va “Ernst&Young” MChJ xalqaro konsalting kompaniyasi tomonidan xarid jarayonlarini auditdan o‘tkazish, shu jumladan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimlarining samaradorligini oshirish (forenzik) yuzasidan o‘tkazilgan audit tekshiruv natijalari bo‘yicha berilgan ko‘rsatma va tavsiyalari ijrosini ta‘minlash hamda “O‘ztransgaz” AJda tovar (ish, xizmat)larni xarid qilish sohasidagi faoliyatini takomillashtirish maqsadida,

BUYURAMAN:

1. Quyidagilar ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin:

- O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 27-noyabrdagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi O‘RQ-1005-son Qonuni;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda "Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta'minlash bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-259-son farmoni;

- "Ernst&Young" MChJ xalqaro konsalting kompaniyasi tomonidan xarid jarayonlarini auditdan o'tkazish, shu jumladan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimlarining samaradorligini oshirish (forenzik) yuzasidan o'tkazilgan audit tekshiruv natijalari bo'yicha berilgan ko'rsatma va tavsiyalari.

2. Quyidagilar ilovalarga muvofiq yangi tahrirda tasdiqlansin:

- "O'ztransgaz" AJ ehtiyojlari uchun tovar (ish, xizmat)larning xaridi to'g'risidagi Nizom (1-ilova);

- "O'ztransgaz" AJda shartnomalarni tayyorlash, tuzish, ro'yxatdan o'tkazish va tasdiqlash to'g'risidagi Nizom (2-ilova);

- "O'ztransgaz" AJ tovar (ish, xizmat)lar sotib olish uchun xarid komissiyasi tarkibi hamda xarid qilingan tovarlarni qabul qilish bo'yicha komissiya tarkibi (3-ilova);

- "O'ztransgaz" AJ uchun tovarlar (ish va xizmat)lar sotib olish bo'yicha buyurtmalarni shakllantirish to'g'risidagi Nizom (4-ilova);

- "O'ztransgaz" AJ xarid faoliyatida avtomatlashtirilgan web-dasturida ishlash tartibi to'g'risidagi Nizom (5-ilova);

- "O'ztransgaz" AJ tizimida "Xaridlar siyosati" (6-ilova).

Ushbu Nizomlar Buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladigan quyidagi xaridlarga tatbiq qilinmaydi:

- qimmatli qog'ozlar,
- valyuta qimmatliklari,
- qimmatbaho metallar oldi-sotdisi,
- moliyaviy instrumentlar sanaluvchi shartnomalar tuzish;
- qurilish ishlari uchun ijrochilar, pudratchilar bilan shartnomalar tuzish va bajarish;
- a'zolik badallari.

Mazkur turdagi shartnomalar tashabbuskor departament va mustaqil bo'limlar tomonidan tuziladi.

3. Ijroiya apparat tomonidan imzolangan shartnomalar bo'yicha mahsulotlar va xizmatlarni qabul qilib olishda qabul qilish dalolatnomalari tuzilsin va bunda:

3.1. Ijroiya apparat tomonidan qabul qilib olinadigan tovar va xizmatlar uchun:

- xizmatlarni shartnoma shartlariga muvofiq amalga oshirilgandan so'ng xizmatlarni amalga oshirgan korxonalar va Jamiyat o'rtasida bajarilgan ishlar dalolatnomasi tuzilib, buyurtma taqdim qilgan departament mutaxassislari tomonidan imzolanadi hamda Boshqaruv raisining tegishli o'rinbosarlari tomonidan tasdiqlanadi;

- tovarlarni shartnoma shartlarida ko'rsatilgan texnik ko'rsatkichlarga mosligi to'g'risida buyurtma taqdim qilgan departament tomonidan dalolatnoma tuzilib,

tegishli mutaxassislari tomonidan imzolanadi hamda Boshqaruv raisining tegishli o'rinbosarlari tomonidan tasdiqlanadi.

Barcha xarid qilingan tovarlar Jamiyat omborchisi tomonidan dalolatnoma asosida qabul qilib olinadi.

3.2. Tarkibiy tuzilmalar tomonidan qabul qilib olinadigan tovar va xizmatlar uchun:

- xizmatlar shartnoma shartlariga muvofiq amalga oshirilgandan so'ng xizmatlarni amalga oshirgan korxonaga va tarkibiy tuzilma o'rtasida bajarilgan ishlar dalolatnomasi tuzilib, buyurtma taqdim qilgan departament bilan kelishgan holda tarkibiy tuzilma va departamentning tegishli mutaxassislari tomonidan imzolanadi hamda Boshqaruv raisining tegishli o'rinbosarlari tomonidan tasdiqlanadi;

- tovarlarni shartnoma shartlarida ko'rsatilgan texnik ko'rsatkichlarga mosligi to'g'risida tarkibiy tuzilmalar tomonidan dalolatnoma tuzilib, buyurtma taqdim qilgan departament bilan kelishgan holda tarkibiy tuzilma va departamentning tegishli mutaxassislari tomonidan imzolanadi hamda Boshqaruv raisining tegishli o'rinbosarlari tomonidan tasdiqlanadi.

Barcha xarid qilingan tovarlar tarkibiy tuzilma omborchisi tomonidan dalolatnoma asosida qabul qilib olinadi.

Tovar va xizmatlar xaridi uchun texnik topshiriqlar departament va mustaqil bo'limlar tomonidan, tarkibiy tuzilma mutaxassislarning ishtirokisiz tuzilgan taqdirda, tovar va xizmatlarni qabul qilib olishda buyurtmachi departament va mustaqil bo'limlarning tegishli mutaxassislari shaxsan ishtirok etishlari shart.

4. Tovar (ish, xizmat)lar xarid qilishda buyurtmalarni xarid turini Xarid komissiyasi raisi yoki o'rinbosari tomonidan aniqlash tizimi yo'lga qo'yilsin.

Bunda, Elektron savdolarini tashkil qilish bo'limiga taqdim qilinayotgan talabnomalar Komissiya raisi yoki o'rinbosari tomonidan tasdiqlansin.

5. Jamiyatning tarkibiy tashkilotlari "Urganchtransgaz" UK, "Transgazinjiniring" MChJ, "Naqlgazmaxsusqurilish" AJ, "Yordamchi xo'jalik" MChJ tovar (ish, xizmat)lar xarid qilishda o'zlarining yangi tahrirdagi xaridlarni amalga oshirish bo'yicha yagona ichki nizomini ishlab chiqsin, bunda:

- mahalliy va import shartnomalarni markazlashmagan holda amalga oshirish;
- eng yaxshi takliflarni tanlash va tender savdolarini o'tkazishda 7 (yetti) kishidan iborat komissiya tarkibi tuzilishi hamda boshqaruv apparatidan xarid komissiyasi tarkibiga "Xaridlar va kooperatsion aloqalar" hamda "G'aznachilik va moliya" departamentlaridan 1 (bir) nafardan xodim kiritilishi;

- xarid komissiyasining qarorlari uning a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinishi shartligi;

- markaziy boshqaruv apparati Xaridlar va kooperatsion aloqalar departamentiga hisobdorligi va har chorakda xaridlar bo'yicha ma'lumotlarni taqdim etish zarurligi belgilansin.

6. Xarid komissiyasi a'zolari, va komissiya kotibiga ("O'ztransgaz" AJ boshqaruv a'zolari va xarid komissiyasining buyurtmachisi sifatida jalb

qilinadiganlar bundan mustasno) boshqa belgilangan to'lovlardan tashqari amalga oshirilgan ishlar uchun oyma-oy tartibda, ish haqiga qo'shimcha ravishda mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 10 baravari miqdorida to'lanib borilsin

7. Kelgusida shartnomalar doirasida jarimalar kelib chiqishini oldini olish maqsadida xaridlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mablag'lar (bo'nak, boshlang'ich va oldindan to'lov va boshqalar) ta'minlanmasdan turib xaridlarni amalga oshirish ta'qiqlanadi.

Shartnomalar bo'yicha yuzaga kelgan jarimalarga Jamiyatning tarkibiy tuzilma va tashkilotlarining rahbarlari hamda ularning tegishli mas'ullari javobgar hisoblanadilar.

8. "O'ztransgaz" AJning 2023-yil 5-yanvardagi 4-sonli, 2025-yil 23-iyundagi 95-sonli, 2025-yil 4-avgustdagi 123-sonli va 2026-yil 10-martdagi 30-sonli buyruqlari mazkur buyruq imzolangan kundan boshlab o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

9. "O'ztransgaz" AJ tasarrufidagi tashkiliy tuzilmalar va departamentlar, bo'limlar, xizmatlar boshliqlari tovar (ish, xizmat)lar sotib olish bo'yicha ushbu buyruqni rahbarlik va ijro uchun qabul qilsin.

10. Barcha tashkiliy tuzilmalar tovar (ish, xizmat)lar sotib olish bo'yicha ushbu buyruq asosida yangi tahrirdagi xaridlarni amalga oshirish bo'yicha yagona ichki nizomini ishlab chiqsin.

11. Devonxona mudiri (Kamilova) ushbu buyruqni "O'ztransgaz" AJ tasarrufidagi tashkiliy tuzilmalar va ijroiya apparatining departament hamda bo'lim boshliqlariga yetkazilishini ta'minlasin.

12. Mazkur buyruq bajarilishini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

Boshqaruv raisi v.b.



A. Isakov